



INKLYUZIV TA‘LIM BO‘YICHA RESPUBLIKADA OLIB BORILGAN VA OLIB BORILAYOTGAN FAOLIYAT.

Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi.
FarDU doktoranti.

Anotatsiya. Alohida ehtiyojli bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘z qobiliyati darajasida faoliyat ko‘rsatishi, ta‘lim olishi, kasb-hunar o‘rganishi va o‘z qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Inklyuziv ta‘lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanganadilar, ijtimoiy hayotda teng huquqli ekanliklarini, o‘z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Kalit so‘zlar: alohida ta‘limga muhtoj bolalar, konvensiya, qonunlar, inklyuziv ta‘lim, muammolar, ta‘lim, zaif ko‘ruvchi bolalar, moddiy-texnik baza, reabilitatsiya, muhit, omil.

Annotation. Children with special needs, together with their healthy peers, can function at the level of their abilities, receive education, learn a profession and develop their abilities. If inclusive education is organized appropriately, children with special needs are protected from the social side, they feel that they have equal rights in social life, and that they can learn together with their peers.

Key words: children with special educational needs, convention, laws, inclusive education, problems, education, visually impaired children, material and technical base, rehabilitation, environment, factor.

KRISH.

Hozirgi kunda jahon miqyosida keng targ‘ibot qilinayotgan inklyuziv ta‘lim strategiyasi, ya‘ni rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash masalasi O‘zbekistonda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Inklyuziv ta‘limni joriy qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, ya‘ni mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanishini, milliy qadriyatlarimizni e‘tiborga olishimizni taqozo etadi. Inklyuziv ta‘limni amaliyotga joriy qilishning maqsad, vazifalari, ta‘limni tashkil etish usullarini ommaga tushuntirishda hali qator muammolar ham mavjud. 2006- 2009 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar markazining davlat granti asosida Maxsus ta‘lim bo‘limining mutaxassislari tomonidan:

-umumta‘lim standart talablari va modernizatsiya qilingan dasturlar asosida ko‘zi ojiz bolalar maktablarining boshlang‘ich sinflariga moslashtirish bo‘yicha 9 ta fandan tavsiyalar va

5 ta fandan korreksion davlat talablari yaratildi. Zaif ko‘ruvchi bolalar maktablarida ta‘lim jarayoni umumta‘lim standartlari asosida amalga oshiriladi;

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta‘limni qo‘llab-quvvatlash va amaliyotga joriy qilish borasidagi huquqiy-me‘yoriy xujjatlar.

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil; 41-modda).

– “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risida”gi Qonun (1991 yil, 19, 27-moddalar).

– “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun (1997 yil, 22, 23-moddalar).

– “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2008-yil; ta‘lim olishdagi teng imkoniyatlar va alohida kafolatlari, 28, 29-moddalar).

– “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi (2007yil, 4.2-bandi), “Yoshlar yili” Davlat dasturi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Respublika Ta‘lim Markazining maxsus ta‘lim bo‘limi hodimlari imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiyalashgan ta‘lim jarayonida ta‘lim olish strategiyasini keng joriy qilish maqsadida YuNESKO tashkiloti bilan 1996 yildan buyon hamkorlik qilib kelmoqda. O‘zbekistonda integratsiyalashgan inklyuziv ta‘lim tizimini amaliyotga tadbqiq qilish maqsadida YuNESKO xalqaro tashkiloti loyihasi asosida bir necha respublika seminar-treninglari va xalqaro konferentsiyalar o‘tkazishga muayassar bo‘lindi. Konferentsiyalarda ko‘tarilgan dolzarb muammolar, masalalar, tavsiyalar va ishtirokchilarning ma‘ruzalari xalqaro to‘plamda chop etildi va ommaga tarqatildi. Hozirgi kunda Respublikamizda inklyuziv ta‘lim kontsepsiyasini joriy qilishda asosiy dasturiy amal bo‘lib kelmoqda.

1998 yilda YuNESKO tashabbusi bilan Buxoro shahrida yirik Konferentsiya o‘tkazildi. Konferentsiyaning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo‘llash, reabilitatsiya qilish, ta‘limga jalb qilish, moddiy, texnikaviy yordamlarni tashkil qilish va ularni to‘laqonli jamiyatga moslashtirishga oid turli tashkiliy uslubiy ishlarni amalga oshirishda Markaziy Osiyoda ko‘p tarmoqli aloqalar o‘rnatish edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son [Farmoniga](#) muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta‘lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

2020 — 2025-yillarda xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya).

2020 — 2025-yillarda xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda — “Yo‘l xaritasi”).

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi, jumladan:

a) 2020 — 2022-yillar davomida:

inklyuziv ta‘lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

inklyuziv ta‘lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

b) 2023 — 2025-yillar davomida:

inklyuziv ta‘lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida joriy qilinadi;

alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

NATIJA.

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta‘limni tatbiq qilishning milliy modelini ishlab chiqish maqsadida olib borilgan ishlar bo‘yicha, “Ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash fondi” va XTV bilan hamkorlik loyihalari, inklyuziv ta‘limni joriy etishda Davlat, nodavlat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar; UNESCO, UNICEF, Osiyo Taraqqiyot Banki, USAID va boshqalar hamkorlik qilindi.

Grant Yaponiyaning qashshoqlikni bartaraf etish fondi tomonidan taqdim etilgan va Osiyo taraqqiyot Banki tomonidan o‘zlashtirilgan. Ushbu loyiha bo‘yicha o‘zlashtirish organi Xalq ta‘limi vazirligi etib tayinlangan.

Loyiha “2004-2009 yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi” hamda 1994 yilda UNESCO tomonidan Salamankada o‘tkazilgan inklyuziv ta‘lim bo‘yicha xalqaro konferentsiyada qabul qilingan va 2000 yilda Dakarda o‘tkazilgan Ta‘lim bo‘yicha xalqaro Forumda tasdiqlangan dastur doirasida o‘zlashtirildi.

2020-2025 - yillarda xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirishda quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarning rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta‘limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta‘limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta‘minlanadi;

davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta‘lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizm

inklyuziv ta‘lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o‘zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi;

o‘quvchilar ta‘limiy ehtiyojlarning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta‘lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi;

inklyuziv ta‘limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta‘lim olayotgan o‘quvchilarning teng huquqli jamiyat a‘zosi sifatida umumta‘lim muassasalarida bilim olishi ta‘minlanadi;

pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta‘lim muassasalarida inklyuziv ta‘lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;

inklyuziv ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi;

inklyuziv ta‘lim muassasalarining internet tarmog‘iga to‘liq ulanishi ta‘minlanadi;

MUHOKAMA.

2005 yilning 19 sentyabr kuni XTVning 234-sonli buyrug‘i bilan “Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta‘lim to‘g‘risida muvaqqat Nizom”i tasdiqlandi. Ushbu Nizomda inklyuziv ta‘lim tizimining maqsad, vazifalari belgilab berilgan. Unda qayd qilinishicha, imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar quyidagi tartibda inklyuziv ta‘limga qamrab olinadi:

- ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
- harakat muvozanati buzilgan;
- o‘z-o‘ziga xizmat qila oladigan debillik darajasidagi oligofren bolalar va o‘smirlar;
- nutqida nuqsoni bo‘lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi) bolalar;
- zaif ko‘ruvchi bolalar va o‘smirlar;
- zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin) kar bo‘lgan bolalar;
- ko‘zi ojiz (Brayl yozuvi va o‘qishni egallagan) bolalar va o‘smirlar;
- kar (muloqot darajasida nutqi bo‘lgan, o‘qish va yozishna egallagan) bolalar va o‘smirlar.

Inklyuziv ta‘lim tizimini joriy etish bo‘yicha ijobiy tajriba respublikaning boshqa hududlariga bosqichma-bosqich tatbiq etiladi.

2020-2021 o‘quv yilidan boshlab:

- ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida majburiy umumiy o‘rta ta‘limni 11 yillik (intellektual rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlarda 9 yillik) muddatda amalga oshiriladi;
- ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarining 10-11-sinf (intellektual rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlarda 8-9-sinf) o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘rgatish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarining qisqartirilayotgan o‘quv soatlari doirasida kasb o‘qitish kurslari tashkil etiladi.

Kasbga o‘qitish kurslarini tashkil etishda metodik yordam ko‘rsatish, o‘quv jarayonini samarali olib borish va malakali professor-o‘qituvchilarni jalb etish uchun professional ta‘lim muassasalari hamda “Ishga marhamat” monomarkazlari ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga birlashtiriladi.

2021-2022 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berish moslashtirilgan (adaptiv) o‘quv dasturlari asosida amalga oshiriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga individual ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko‘maklashadi. Tyutor sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda professional ta‘lim muassasalari uchun umumiy davlat granti asosida qabul ko‘rsatkichlarining 2 foizgacha bo‘lgan qismi ushbu shaxslarga ajratiladi.

XULOSA.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo‘lmish farzandlarni mas‘ulaylatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo‘shadigan munosib fuqarolar bo‘lib etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Jamiyat o‘z a‘zolariga javobgarlikni o‘z bo‘yniga olmas ekan, maxsus yordamga muhtoj bolalarning asosiy muammolarini hal etishga, ijtimoiy integratsiyaga erishish qiyin. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta‘lim-tarbiyasida teng teng huquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir, chunki juda ko‘plab bolalar turli sabablarga ko‘ra ta‘limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta‘limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko‘rib chiqish, ya‘ni mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni/Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637- son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019.
4. Shomaxmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta‘lim (uslubiy qo‘llanma).
5. “Inklyuziv ta‘lim” muvaqqat Nizomi. 2005.
6. Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta‘limni tashkil etish to‘g‘risida muvaqqat NIZOM. – O‘RXTV. – T., 2005.
7. Roy M.K. Inklyuziv sinflarda o‘quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish. – Toshkent-YUNESKO, 2004.
8. Ta‘lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari // ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2005.
9. Fayziyeva U., Nazarova D., Kolbayeva X.J. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar inklyuziv ta‘limi. – Toshkent: O‘XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT, 2005.
10. Fayziyeva U.Yu., Abdurazakova D. Do‘stona munosabat muhitidagi maktab. – Toshkent: O‘XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT, 2005.